



## Science technology & Digital finance

journal homepage: <https://bestjournalup.com/index.php/stdf>

# MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI VA UNING ISTIQBOLLARI

O'rolova Aziza Umid qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o'qituvchisi.

### Annotatsiya

Mazkur maqolada mahalliy budgetlarning daromadlar bazasini shakllantirish tizimi, mahalliy budgetlar daromadlari samaradorligini taminlashning ilmiy-amaliy jihatlari, mahalliy soliqlarning muhim jihatlari va hududlarning soliq potentsialini baholashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek mahalliy budget daromadlarining shakllantirish tizimida xorijiy tajriba o'rganilgan va mahalliy budget daromadlarini shakllantirish tizimining amaldagi holati, takomillashtirish masalalalari tadqiq qilingan. Tadqiqot natijasida shakllantirilgan xulosalar asosida mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi muhim chora-tadbirlarni amalgalash yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

### Kalit so'zlar:

Mahalliy budget; mahalliy budget daromadlari; soliq-budget siyosati; mahalliy byudjet xarajatlari; mahalliy hokimiyat organlari; mahalliy soliqlar va yig'imlar; hududlar; mintaqaviy iqtisodiyot.

Email: [aziza.uralova@icloud.com](mailto:aziza.uralova@icloud.com)

©2024. O'rolova Aziza Umid qizi

Published by Fast support and result LLC. This is an open access article under the CC BY-NC-ND license



Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License.

## Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va liberallashtirish, samarali soliq-byudjet siyosatidan foydalangan holda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va mahalliy budjet daromadlarini istiqboldagi o'sishini ta'minlashga doir chora tadbirlar ko'riliши dolzarb masalaga aylanmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda mahalliy byudjetlarning daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish, uyjoy-kommunal, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiyalash va texnik yangilash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarni amalga oshirishni ta'minlash yuzasidan ustuvor vazifalar amalga oshirildi.

Shunday ekan, so'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

## Asosiy qism

Shu o'rinda "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining uzviy davomi sifatida nomoyon bo'lmoqda. Unda yetta yo'naliш, 100 ta maqsad belgilab olingen bo'lib, unda "Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqr tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'naliшlari belgilangan".[1]

Yo'naliшlardan biri "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" etib belgilanganligi davlat budjeti daromadlarini oshirish, mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini muqobillashtirish muhim masalalardan biri ekanini ko'rsatmoqda.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlash, hududlarning moliyaviy bazasini mustahkamlash, mahalliy byudjetlarning

daromad qismini kengaytirish bo'yicha hududlarning zaxira va imkoniyatlarini ishga tushirish muhim vosita bo'lib hizmat qiladi.

Iqtisodchi olimlar mahalliy byudjet moliyaviy barqarorligini ta'minlash, shuningdek, mahalliy byudjetlar xarajatlaridan samarali foydalanish ham iqtisodiy, ham huquqiy omillarga bog'liq deya ta'kidlashadi. Ayrim iqtisodchilar bu omillarga mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolat va mas'uliyatini oshirish orqali erishish mumkinligini e'tirof etishsa, ba'zi iqtisodchilar esa daromadlar va xarajatlar mutanosiblikka erishish orqali amalga oshirilishi mumkinligini tan olishadi.


Xususan, A.Islomqulovning fikricha, mahalliy byudjet daromadlari, bir tomondan, yalpi ichki mahsulot qiymatining ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari o'rtaida taqsimlanishi natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu qiymat hisoblanadi va u mahalliy

ahamiyatga ega fondni shakllantirishga xizmat qiladi.

M.Xaydarovning ta'kidlashicha, byudjet tizimi byudjetlarini markazsizlashtirish byudjet daromadlari va turli darajadagi boshqaruva organlari vakolatlari o'rtasidagi byudjet xarajatlari bo'yicha majburiyatlarga nisbatan mutanosiblikni ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq.

N.Yo'ldosheva esa mahalliy byudjetlarni tartibga solish usullarini takomillashtirish orqali ularning daromad manbalarini mustahkamlash va xarajatlar majburiyatlarini optimallashtirishga erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Mahalliy budget daromadlarini shakllanishining amaldagi holati va ushbu jarayondagi daromad manbalarini tahlil qiladigan bo'lsak, avvalambor daromadlarning shakllanishiga e'tibor berish lozim:



Bu borada Xorij tajribasini kuzatishda, aksariyat mamlakatlardan mahalliy byudjetlarining daromad qismi daromadlarning ikki guruhi hisobiga shakllanishini ko'rishimiz mumkin. Birinchi guruhi-mahalliy soliqlar va yig'imlar, jarimlar, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, munitsipalitet mulkni boshqarish va boshqa xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar, xayriyalar va boshqalar. Ba'zi mamlakatlarda boshqa daromadlar mahalliy hukumatlar tomonidan olingan kreditlar va qarzlarni ham o'z ichiga oladi. Ikkinci guruhi boshqa byudjetlardan moliyaviy yordam tarzida olingan pul o'tkazmalarini kiradi.

Aksariyat xorijiy mamlakatlarda mahalliy byudjetlarda o'z daromadlari ustun turadi. Xususan, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Shvetsiya, Portugaliya, Vengriya va Sloveniya davlatlarida mahalliy byudjetlar o'z

daromadlari hisobiga asosan mahalliy soliqlar hisobidan shakllantiriladi. Litva, Estoniya va Chexiya daavlatlarida esa mahalliy byudjet daromadlarning asosiy qismini umumdavlat soliqlaridan ajratmalar tashkil etadi. Finlyandiyada mahalliy hokimiyat organlari o'z daromadining 2/3 qismi aholiga kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi kommunal kompaniyalardan olingan mablag'lar hisobiga shakllantiradi.

Xorijiy amaliyotda resurslarni byudjetning bir darajasidan boshqasiga o'tkazish uchun ikkita variant mavjud: daromad taqsimoti va grant tizimi. Daromadlarning bo'linishi soliq bazasining byudjet tizimi darajalarida taqsimlanishi yoki soliq tushumlarining bir darajada markazlashuvi va ularning keyingi bo'linishi shaklida amalga oshiriladi. Grantlar ajratish byudjet tizimining rivojlanayotgan vertikal disbalansni kamaytirish va munitsipalitetlar soliq

salohiyatining mintaqalararo farqlanishini tenglashtirish zarurati bilan shartlangan obektlar, ya'ni gorizontal nomutanosiblik bartaraf etish uchun. Grant tizimi ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan va tanlangan mezonlarga muvofiq taqdim etilgan umumiylar maqsadga qaratilgan maqsadli o'tkazmalar bilan ifodalanadi.

AQShdagi mahalliy byudjetlarning daromadlarida transfertlarning ulushi umumiylar fiskal yordam shaklida 40 foizni tashkil etadi, mablag'lar, byudjet grantlari, maxsus va blokli subsidiyalardan foydalanishning aniq maqsadli yo'nalishini ko'rsatmasdan muvozanatni ta'minlash uchun daromadlar qismini ko'paytirish maqsadida taqdim etilgan. Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Gretsya va Sloveniyaning munitsipalitetlari uchun byudjetni shakllantirishning asosiy manbalari davlat byudjeti grantlari hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasi bevosita hududlarda hosil bo'ladigan milliy daromadga, ya'ni ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga, daromadlarning doimiy va bosqichma-bosqich kamayib borishiga bevosita bog'liqdir.

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishning ichki zaxiralari hududlarda ishlab chiqarishni rivojlanish, iqtisodiy islohotlarni joylarda muvaffaqiyatli amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini to'g'ri tashkil etish har bir hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy talablaridan biridir. Mahalliy byudjetlarning daromadlari mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni moliyalashtirishga qaratilgan moliyaviy resurslari manbai hisoblanadi.

### 1-jadval – Mahalliy budjet daromadlari yillar kesimida (milliard so'mda) [2]

No	Viloyatlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	716.7	1207.5	1292.2	2908.1	2953.3	2743.9	1614.2
2	Andijon viloyati	928.3	1353.8	1264.8	2262.5	2624.6	2105.9	2352.2
3	Buxoro viloyati	1098.6	1520.5	1335.6	1731.2	2409.5	1782.9	1935.4
4	Jizzax viloyati	396.2	613.0	715.4	1217.6	1240.9	1058.0	1212.9
5	Qashqadaryo viloyati	1587.7	2200.4	1786.6	2973.1	3783.9	2468.8	2570.3
6	Navoiy viloyati	655.6	968.5	745.3	1542.7	1877.8	1540.9	1535.8
7	Namangan viloyati	753.7	1085.7	1032.2	1760.4	2237.7	1763.0	1970.6
8	Samarqand viloyati	1082.4	1686.7	1557.3	2568.3	2567.2	2385.6	2657.0
9	Surxondaryo viloyati	720.0	1052.2	1030.4	1794.5	1844.8	1605.7	1754.7
10	Sirdaryo viloyati	377.2	599.5	568.5	946.4	816.7	716.5	745.7
11	Toshkent viloyati	1632.3	2338.5	1775.0	2518.6	3721.4	2395.5	3009.8
12	Farg'ona viloyati	1681.1	2271.0	2110.9	2405.7	3836.1	2677.3	2904.9

13	Xorazm viloyati	683.9	953.3	881.4	1432.5	1467.3	1302.7	1442.7
14	Toshkent shahri	2151.0	2326.4	2440.9	3579.7	3752.7	3156.3	4068.6
	Jami:	14464,7	20177.0	18536.5	29641.3	35133.9	27702.9	29774.8

Jadvaldag'i ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, tahlil qilingan yillarda viloyatlar mahalliy byudjetlari daromadlari o'sish tendentsiyasiga ega. Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muhim qismi bo'lib, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar mahalliy ehtiyojlarni to'liq qondirish va ularning bajarilishini davlat tomonidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirish imkonini beradi. Hududlarning mahalliy davlat hokimiyati organlariga mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish vazifasi kiritildi.

### Xulosa

Bizning fikrimizcha, mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash va mahalliy byudjetlar xarajatlari samaradorligiga erishishga birinchi navbatda, hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va soliqqa tortish manbalarini ko'paytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali erishiladi. Mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash, xarajatlari barqarorlashtirish, ularning daromadlari bazasini kengaytirish hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb masalalardan biridir. Mahalliy byudjetlarning daromad bazasi bevosita

hududlarda hosil bo'ladigan milliy daromadga, ya'ni ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga, daromadlarning doimiy va bosqichma-bosqich kamayib borishiga bevosita bog'liqligini anglagan holda, ushbu jihatlarga ko'proq e'tibor qaratilishi lozimligini talab etadi.

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishning samarali tashkil etishda hududlarda ishlab chiqarishni rivojlanish, iqtisodiy islohotlarni joylarda muvaffaqiyatli amalga oshirishni kuchaytirish orqali erishish maqsadga muvofiq deya qaraladi. Bu borada mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini to'g'ri tashkil etish har bir hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy talablaridan biri ekanini ham unutmaslik lozim. Zero,mahalliy byudjetlarning daromadlari mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududi ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni moliyalashtirishga qaratilgan moliyaviy resurslari manbai hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son// https://lex.uz/uz/docs/-5841063
2. Central Asian Academic journal of scientific research // <https://cyberleninka.ru/article>
3. 2020-2021-yillar uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida// <https://lex.uz/ru/docs/-5186044>
4. Soliq va budjet siyosatining 2019-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan

- O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida//<https://lex.uz/docs/-4123665>
5. Сирохиддинова З.Х., Вахобов А.В., Сидиков Ж.Р. Государственный бюджет Республики Узбекистан. Учебное пособие. -Т.: ТФИ, 2021
6. Орлова Е.В. Исследование зарубежного опыта управления финансово-бюджетной несостоятельностью муниципальных образований. [Электронный ресурс]. <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovaniye-zarubezhnogo-opyta-upravleniya-finansovo-byudzhetnoy-nesostoyatelnostyu-munitsipalnyh-obrazovaniy>. (дата обращения: 05.06.2021).
7. Рўзиев З.И. Махаллий бюджет даромадларини шакллантириш ва самарадорлигини ошириш истиқболлари// Инновацион технологиилар, №. 3 (39), 2020.
8. Заярная И.А., Колыцюк Н.В. Роль местных бюджетов в обеспечении эффективности управления муниципальными финансами в россии и в зарубежных странах. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=43031590>.
9. Rustamova M.M., Dementiev A.N. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining muvozanatlashning ba'zi muammolari // O'zMU axborotnomasi. 2020.
10. Чеснокова Л.А. "Совершенствование механизма распределения налоговых доходов по уровням бюджетной системы РФ". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саранск, 2021.
11. Юлдошева Н.Н. Махаллий бюджетлар мустақиллигини ошириш масалалари// Экономика и финансы (Узбекистан). №3. 2021
12. Бюджетный кодекс Республики Узбекистан. [Электронный ресурс]. <https://lex.uz/docs/2304140>. (дата обращения: 10.08.2021).
13. Шогенов А. А. Методические аспекты расчета налогового потенциала региона. Региональная экономика и управление: электронный научный журнал [Электронный ресурс].<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=17312390>. (дата обращения: 05.06.2021).
14. Шабашев В.А., Маликайдаров Т.Т. Понятие налогового потенциала региона и проблемы его развития. Вестник Кемеровского государственного университета. 2015. 4(64) 25-30.
15. Мещерякова Л. А. Оценка потенциальных возможностей региона в увеличении налоговых доходов бюджета. [Электронный ресурс]. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=9900260>. (дата обращения: 05.06.2021).
16. С. Синельников-Мурылев, П. Кадочников, Г. Идрисов. Налог на прибыль предприятий: анализ реформы 2001 г. и моделирование налогового потенциала регионов. [Электронный ресурс]. <https://cyberleninka.ru/article/n/nalog-na-pribyl-predpriyatiy-analiz-reformy-2001-g-i-modelirovaniye-nalogovogo-potentsiala-regionov>. (дата обращения: 05.06.2021).
17. Евстафьева А.Х., Филатова Е.А. Методологические подходы к оценке налогового потенциала региона. [Электронный ресурс]. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodologicheskie-podhody-k-otsenke-nalogovogo>

potentsiala-regiona. (дата обращения: 05.06.2021).

18. Орлова Е.В. Исследование зарубежного опыта управления финансово-бюджетной несостоительностью муниципальных образований. [Электронный ресурс]. <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovaniye-zarubezhnogo-opyta-upravleniya-finansovo-byudzhetnoy-nesostoyatelnostyu-munitsipalnyh-obrazovaniy>. (дата обращения: 05.06.2021).

19. Заярная И.А., Кольцов Н.В. Роль местных бюджетов в обеспечении эффективности управления муниципальными финансами в россии и в зарубежных странах. [Электронный ресурс].

<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=43031590>. (дата обращения: 05.06.2021).

20. [Электронный ресурс]. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz). (дата обращения: 10.08.2021).

21. Kamolov D. YOSHLAR TARBIYASIGA HUQUQIY, AXLOQIY VA SIYOSIY MADANIYATNING UZVIY ALOQADORLIGI //International Journal of scientific and Applied Research. – Т. 1. – №. 3. – С. 430-433.

22. Kamolov D. THE MORAL VIEWS ON PUBLIC ADMINISTRATION AND

LEADERSHIP IN NIZAMULMULK'S "THE POLICY" //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 47-50.

23. Kamolov D., Eshonqulov R. DEMOKRATIYANING AXLOQIY JIHATLARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 37-42.